

Yusupova Maxliyo Narimon qizi

Xiva tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Ibrogimova Yulduz Baxodirovna

Xiva tumani 27-umumiy o'rta ta'lim maktab pisixologi

Har bir inson bolaliBolalar psixologiyasi — yosh davrlari psixologiyasi fanining bo'limlaridan biridir. Yosh psixologiyasi, shu jumladan, bolalar psixologiyasining psixologiya fanidagi boshqa tarmoqlardan farqi shundaki, u psixik hodisalaming o'zini emas, balki rivojlanishi va yosh bilan bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq etadi. Yosh psixologiyasining bugungi kundagi eng muhim muammolari quyidagilardan iborat:

- a) turli psixofiziologik funksiyalaming yoshga oid me'yorlarini ilmiy jihatdan asoslab berish;
- b) individ, shaxsning yetuklik mezonlari va namunalarini aniqlash;
- c) hayotning turli bosqichlarida insonning real va potentsial imkoniyatlari qanday bo'lishini aniqlash;
- d) inson hayotining dastlabki bosqichlari uning kelgusidagi taraqqiyotida qanday rol o'ynashini tushunish va ilmiy bashorat qilish.

Ushbu muammolami hal etish uchun inson hayotining har bir bosqichida — bolalik, o'spirinlik, yetuklik va qarilikda uning psixikasida ro'y bergan o'zgarishlami chuqur o'rganish talab etiladi. Albatta, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. O'rtadagi farq ulaming maqsadlari, konseptual apparati, metodologiyasi va ular doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarda yaqqol namoyon bo ladi. Fundamental—nazariy tadqiqotlarning asosiy maqsadi amaliyot uchun bo'lgan ahamiyatidan qa'ti nazar, psixik hodisalar haqidagi bilimlarni kengaytirib borishdan iborat. Amaliy psixologiya esa kundalik hayot bilan bog'liq konkret muammolami hal etishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazadi. Fundamental

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tadqiqotlarda tadqiqotchi shaxsining ta'sirisiz ham ilmiy metod o‘z vazifalarini bajaradi. Ammo amaliy psixologiyada psixolog shaxsi metodning ajralmas qismi boiib hisoblanadi. Nazariy izlanishlarda qo‘llanayotgan metodlarning ishonchligi, validligi, reprezentativligi muhim ahamiyat kasb etsa, amaliy psixologiyada bular asosiy rolni o‘ynamaydi. Shunga qaramay, bola psixik taraqqiyotiga xos qonuniyatlar va nazariy bilimlami egallabgina haqiqiy professional mutaxassis-psixolog, tarbiyachi bo‘lib yetishish mumkin. L.F.Obuxova o‘rinli ta’kidlaganidek, bolalar psixologiyasi sohasidagi nazariy vazifalar hal etilgandan keyin ilmiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ham kengaytirildi.

Bola psixikasini o‘iganishda tadqiqotchi bir qator pritnsiplar — qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo‘ladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

Ob’ektivlik prinsipi tadqiqotchidan ma’lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Masalan, mashg‘ulot davomida bola oynadan tashqariga qarayotgan edi deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqidagi ma’lumot bo‘lib hisolanadi. Lekin “bola e’tiborsiz” deb aytish hodisaning talqinidir. Hodisaning o‘zi bilan uning talqinini aralashtirib yubormaslik kerak. Chunki yuqorida misolda ham bola oynaga qarab tuigan esa-da, tarbiyachi so‘zlariga katta e’tibor berayotgan bo‘lishi mumkin.

Sababiylit tamoyili bola shaxsi va ongida yangi sifatlarning hosil bo‘lishini ta’minlovchi barcha shart-sharoit va omillami imkon qadar o‘rganishni talab qiladi. Masalan, mashg‘ulot davomida bola tez-tez oyna tarafga qarayotgan bo‘lsa, bu hodisaning iloji boricha ko‘proq sabablarini aniqlashga urinish kerak: ko‘chadagi biron narsa bola e’tiborini o‘ziga tortdimi, mashg‘ulotda bola charchab qoldimi, qilayotgan material bolaga yaxshi tanishmi va hokazo.

Sinchkovlik va muntazamlik tamoyili bola psixikasi shakllanishi jarayonini, bunda psixolog va pedagoglar ta’sirini sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi. Ushbu bandlar belgilangach, ulardan chetga chiqmaslik kerak, ya’ni qandaydir sub’ektiv sabablar bilan shoshilinch xulosalar chiqarmaslik, tadqiqotni bevaqt tugatish hollariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Aks holda ob’ektivlik tamoyili buzilgan bo‘ladi. Bolani o‘rganish ikki asosiy shaklda: “ko‘ndalangiga kesim” va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“uzunasiga kesim” metodi deb nomlanuvchi tadqiqot shaklida amalga oshiriladi.

Tadqiqot ko‘ndalangiga kesim shaklida o‘tkazilganda turii yoshdagi bolalar guruhlarida muayyan psixologik jarayon, holat yoki xususiyat o‘rganiladi va har xil yosh bosqichidagi bolalar ustidan olib borilgan tadqiqot natijalari o‘zaro solishtiriladi. Masalan, D.B.Elkonin kichik, o‘rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalaming syujetli-rolli o‘yinlariga xos xususiyatlarni o‘rganib, o‘zaro solishtirib bolalar o‘yinlari taraqqiyotiga xos umumi y qonuniyatni aniqlagan. Ko‘ndalangiga kesim shaklidagi tadqiqotda asosiy e’tibor sinaluvchi bolalar yoshidagi farqlarga qaratishi kerak. Farq qanchalik kichik bo‘lsa, psixolog tadqiqotchi bola psixikasi va shaxsidagi muhim o‘zgarishlami payqash uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo’ladi. Psixik taraqqiyot bolaning insoniyat tarixi davomida to‘plagan bilim va tajribalami o‘zlashtirishi hamda shaxs sifatida shakllanib borishi jarayonidan iborat. Yosh individ psixik taraqqiyotining aniq vaqt chegarasiga ega bo‘lgan bosqichi. Psixik taraqqiyotning har bir bosqichida individda muayyan fiziologik va psixologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Odatda psixologiyada xronologik va psixologik yosh ajratiladi. Xronologik yosh inson tug‘ilgandan boshlab necha yosh yashaganini ifodalarydi. Psixologik yosh esa inson psixik rivojlanishi darajasini aks ettirib, ko‘pincha aqliy yosh deb ataladi. Aqliy yosh turli yoshdagi odamlar uchun mo‘ljallangan maxsus test topshiriqlari orqali aniqlanadi. Aqliy yoshning xronologik yoshga nisbati bola psixik taraqqiyotining o‘ziga xos ko‘rsatkichi — intellektual rivojlanish koeffitsientini hosil qiladi, bu koeffitsient ingliz tilidan olingan qisqartma IQ harflari orqali belgilanadi. Bularda albatta bolalar psixologiyasini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanildan adabiyotlar.

1. “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” Toshkent, “O’zbekiston” 2000 yil.
2. Jumaboev M “O’zbek bolalar adabiyoti”, Toshkent ”O’zbekiston” 2002 y.
3. Maxmudov Y.F, Xudoyqulov X.J. “Milliy g’urur-ma’naviy komilllik mezoni”. T, Dizayn-Press 2011.327b.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. To‘raqulov E. „Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida“. T., „O‘qituvchi“, 1992, 39-b
5. "Qadimiy hikmatlar", T., F. G‘ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1987,
6. Z. Nishonova , G. Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi ”
T oshkent 2002